

Sherzod Nuraliev**"Mayxonada"**

Visit "[Mayxonada](#)" on MotoLyrics.com

To'ydir bugun, olisdaman to'yxonadan,
Yor-yor kuyi taralgan ul koshonadan.
Do'stlar, meni u yerdan izlamang aslo,
Izlasangiz, topadursiz mayxonadan.
Alam to'la yuragimni kim ham bilar,
Kim hol so'rar mendek dili vayronadan.
Uning bilan yayrar edik, baxtli edim,
O'z baxtini izladi yor begonadan.
Yor, yaxshi qol yoring bilan to'yxonada,
Mening joyim endi faqat mayxonada.
Yor, yaxshi qol yoring bilan to'yxonada,
Mening joyim endi faqat mayxonada.

To'ydir bugun, yoshu qari o'ynab kular,
Kelinchakning ko'zlaridan yosh tomchilar,
Mening dardli yuragimni kim ham bilar,
Kim hol so'rar mendek dili vayronadan.
Mening dardli yuragimni kim ham bilar,
Kim hol so'rar mendek dili vayronadan.

Yor, yaxshi qol yoring bilan to'yxonada,
Mening joyim endi faqat mayxonada. (2x)

Visit [Sherzod Nuraliev](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.